

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.07/13.05.2020.YU.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**QUDRATILLAYEV XAZRATALI ZOKIRJON O‘G‘LI**

**JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI  
LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISHNING PROTSESSUAL  
JIHATLARI**

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi  
va sud ekspertizasi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li**

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni tergov qilishning protsessual jihatlari..... 3

**Кудратиллаев Хазратали Зокиржон угли**

Процессуальные аспекты расследования легализации доходов, полученных от преступной деятельности ..... 24

**Kudratillaev Khazratali Zokirjon ugli**

Procedural aspects of investigating the laundering of proceeds from criminal activities..... 40

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 44

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.07/13.05.2020.YU.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**QUDRATILLAYEV XAZRATALI ZOKIRJON O‘G‘LI**

**JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI  
LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISHNING PROTSESSUAL  
JIHATLARI**

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi  
va sud ekspertizasi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Yu897 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash](http://www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Bazarova Dildora Baxadirovna**  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Rahmonova Surayyo Mahmudovna**  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**Raximov Rustamjon Xamidovich**  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “4” avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: 99871-233-66-36; faks: 99871-233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1407 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., A. Temur ko‘chasi, 13. Tel.: 99871-233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “21” iyulda tarqatildi.

(2025-yil 18-iyuldagi “50” raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.A. Otajonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**I.B. Djurayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**D.B. Bazarova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining (UNODC) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo YaIMining 2–5 % miqdoridagi mablag'lari (taxminan 800 milliard – 2 trillion AQSh dollari) legallashtiriladi. Masalan, 2024-yilgi hisob-kitoblarga ko'ra, bu ko'rsatkich 1,6 trillion AQSh dollarni tashkil qildi<sup>1</sup>. Bunga jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimining mustahkam emasligi, ularni tergov qilish amaliyotining har tomonlama va to'liq emasligi, xalqaro hamkorlikning yetarli darajada o'rnatilmaganligi sabab bo'lmoqda. Bu esa mazkur toifadagi jinoyatlar va ular bilan bog'liq predikat jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni oshirish hamda noqonuniy daromadlarni aniqlashda yangi tergov usullarini joriy qilishni taqozo etadi.

Jahonda jinoiy odil sudlov sifatini tergov jarayonini takomillashtirish orqali kuchaytirish, bu orqali shaxs huquqlarining ta'minlanganlik darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jinoyat ishlarini ko'rib chiqishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning protsessual vakolatlarini qayta ko'rib chiqish, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi asosida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatini tergov qilishning protsessual mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan muayyan natijalarga erishilmoqda. Shunga qaramasdan, dunyo miqyosida bugungi zamonaviy sharoitlarni inobatga olgan holda, tergov amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu turdagi jinoyatlarning ko'rib chiqilishida jinoyat protsessi vazifalaridan kelib chiqib, tergov qilinmayotganligi, ayrim jinoyat-protsessual institutlarning talab darajasida ishlamasligi, isbot qilish predmeti va shartlariga oid protsessual normalardagi mavjud bo'shliqlar bevosita asossiz yoki adolatsiz hukmlar chiqishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun jinoyat ishi holatlarining har tomonlama o'rganilmasligi sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish uchun pul yuvish hamda predikat jinoyatlarni tergov qilishning protsessual jihatlarini tadqiq etishga tizimli va kompleks yondashuv zaruriyati tadqiqot mavzusini o'rganishni taqozo etadi.

Respublikamizda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida muayyan natijalarga erishilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasi<sup>2</sup>da jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish holatlarining

---

<sup>1</sup> Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining (UNODC) 2023-yil uchun yillik hisoboti. [https://www.unodc.org/documents/AnnualReport/UNODC\\_REPORT\\_2023-WEB.pdf](https://www.unodc.org/documents/AnnualReport/UNODC_REPORT_2023-WEB.pdf)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-iyundagi PF-6252-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.06.2021-y., 06/21/6252/0617-son; 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son,

barvaqt oldini olish va ularga barham berish bo'yicha hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida ushbu sohadagi milliy tizimning xalqaro hujjatlarga muvofiqligi, shuningdek, FATF standartlari va xalqaro huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga implementatsiya qilinishini ta'minlash, xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda tizimli muloqotni yo'lga qo'yish hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash maqsadida moliyaviy tergov o'tkazish tartibi hamda predikat jinoyatlar toifasini belgilash<sup>1</sup> vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalar adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, sud qarorlari yuzasidan jamoatchilik orasida to'g'ri va xolisona fikrni shakllantirish, sud hujjatlarini avtomatik tayyorlash va sud qarorlarini tahlil qilish yo'nalishida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish odil sudlovning samarali usullarini tadqiq etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-iyuldagi 660-II-son "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida", 2025-yil 28-yanvardagi O'RQ-1022-son "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyundagi PF-6252-son "O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-iyundagi 402-son "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

---

21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2023-y., 06/23/75/0292-son; 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son; 21.07.2023-y., 06/23/110/0506-son; 04.01.2024-y., 06/24/1/0001-son; 25.05.2024-y., 06/24/79/0363-son; 23.11.2024-y., 06/24/184/0954-son.

<sup>1</sup> 2023–2026-yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Harakatlar dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.01.2023-yildagi PF-11-son. <https://lex.uz/ru/docs/-6358976#-6360332>

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda jinoiy daromadlarni legallashtirishning jinoiy huquqiy, kriminologik, protsessual va kriminalistik jihatlarining ilmiy va amaliy jihatlari bo‘yicha ilmiy-nazariy, huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari bir qator olimlarning ilmiy ishlari, o‘quv adabiyotlari doirasida tadqiq etilgan. Ushbu mavzuning ayrim xususiyatlari M.H. Rustamboyev, G‘.A. Abdumajidov, Q.R. Abdurasulova, U.X. Qobilov, Sh.U. Imomov, G.Z. To‘laganova, B.B. Xidoyatov, D.B. Bazarova, J.A. Ne‘matov, X. Karimov, F.M. Fayziyev, U.U. Nigmatjanov, F. Fazilov, Y. Narziyev, M. Kadirova, R. Raximov, M. Akramov, M. Saidazimov va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

Jumladan, Y. Narziyev tomonidan jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatini tergov qilishning nafaqat protsessual, balki kriminalistik jihatlari o‘rganilgan. Ushbu ilmiy izlanish 2010-yilda amalga oshirilgan bo‘lsa, R. Raximov faqat moliyaviy tergov o‘tkazishning nazariy va amaliy jihatlari, F. Fozilov jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish masalalarini tadqiq qilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan K.V. Kolyada, Ye.Yu. Andronnikova, M.L. Rodichev, I.S. Tumakov, Ye. V.Sheglova, D.B. Jambalov, Yu. V.Krachun, V. Teplov, I.A. Lebedev, S.V. Yefimov, I.V. Medvedev, N.A. Pimenov, N.S. Stakanova, T.Ye. Tatarovskaya, A.N. Brodunov, N.N. Fedotov, Ye.A. Kondrateva, A.R. Goryunov, V.T. Iguyen, S.V. Selivanov, V.V. Korobov, Ye.F. Otkidach, Ya.M. Zlochenko, R.V. Jubrin, Yu.A. Chixanchin, Yu.S. Sizova, Ye.V. Selyanina, V.I. Glotov, A.U. Albekov, V. I. Lafitskiy, A.V. Shashkova, V.L. Kurako va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mavzuga doir masalalar muayyan darajada tahlil etilgan.

Ushbu mavzuning ayrim jihatlari George A. Manning, Michael Levi, Peter Reuter, U. Foksa, W. Safire, E.M. Truman kabi xorijlik olimlarning ilmiy asarlarida yoritilgan<sup>1</sup>.

Respublikamizda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni tergov qilishning protsessual masalalari kompleks tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib, “Jinoyat protsessida shaxs huquq va erkinliklarining ishonchli kafolatini ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirish”, “Jinoyat-protsessual qonunchilik normalarini tizimlashtirish va uyg‘unlashtirish” kabi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

---

<sup>1</sup> Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati qismida keltirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni tergov qilishga oid normalarning kompleks ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etib, bu sohadagi ilmiy konseptual yondashuvlarni rivojlantirish va takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni tergov qilishda moliyaviy tergov, parallel moliyaviy tergov tushunchasi va uning o'ziga xos protsessual jihatlarini o'rganish;

moliyaviy (parallel) tergov o'tkazishning protsessual jihatlarini tadqiq qilish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va unga turdosh jinoyatlar bo'yicha tergovni amalga oshirishda isbot qilish jarayonini o'rganish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va unga turdosh jinoyatlar tergovida mol-mulkni xatlash bilan bog'liq masalalarni o'rganish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatini tergov qilishda tegishlilik bilan bog'liq masalalarni o'rganish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlarini tergov qilishga oid xalqaro standartlarni tahlil qilish;

ushbu jinoyatlarni tergov qilishda xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan hamkorlik masalalarini o'rganish;

xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlarini tergov qilish bilan bog'liq protsessual huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlarini tergov qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, qonunni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, sotsiologik, induksiya, deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llangan bo'lib, bu usullarning jami muayyan darajada dissertatsiya tadqiqoti natijalarining ishonchliligi va asoslilikini ta'minlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazish jarayonida axborot-texnologiyalari va ma'lumotlar to'plashda axborot resurslaridan keng foydalanish zarurati yuzaga kelganligi sababli tezkor-qidiruv tadbirlari turlaridan biri bo'lgan ma'lumotlar to'plash jarayonida axborot tizimlari va axborot resurslarini ham qamrab olish kerakligi hamda tezkor-qidiruv tadbirlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, kibermakonda va/yoki uning imkoniyatlaridan foydalangan holda o'tkazilishi mumkinligi asoslantirilgan;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasida yagona vakolatli davlat organining mavjud emasligi, mavjud organlarning aniq vakolatlari belgilab qo'yilmaganligi hamda ular mustaqil ravishda qaror qabul qilish huquqiga ega emasligi sababli vakolatli davlat organi vakolatlarini

aniqlashtirish lozimligi asoslantirilgan;

jinoiy ishi doirasida isbotlanishi shart bo'lgan holatlarda mol-mulkning jinoiy yo'l bilan olinganligi to'g'risida dalillar mavjud bo'lmaganligi sababli Jinoyat kodeksining 243-moddasida nazarda tutilgan jinoiy bo'yicha mol-mulkning jinoiy yo'l bilan topilganligi yoki ushbu mol-mulkdan foydalanish orqali keladigan daromadning olinganligini tasdiqlaydigan holatlar ham isbotlanishi shart ekanligi asoslantirilgan;

jinoiy-protsessual qonunchilikda mol-mulkni qidirish, xatlash, musodara qilish hamda xorijdan aktivlarni qaytarishga doir masalalar yuzasidan xalqaro hamkorlik tartibi belgilanmaganligi sababli xorijiy davlatlar so'rovi bo'yicha jinoiy faoliyatdan olingan mol-mulkni qidirish, xatlash, musodara qilish hamda xorijdan aktivlarni qaytarishga doir masalalarning hal etilishi tartibini belgilash zarurligi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq holatlarda jinoiy natijasida yetkazilgan zararlar va legallashtirilgan mol-mulklar miqdoridan qat'i nazar, parallel moliyaviy tergov o'tkazish kerakligi asoslantirilgan;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoiy bo'yicha tergovni sifatli, tezkor va har tomonlama mukammal amalga oshirish uchun tergovga tegishlilik bo'yicha muqobil tegishlilikni belgilash lozimligi asoslantirilgan;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va unga turdosh jinoiyatlarda uchinchi shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulklarni xatlash zarurligi asoslantirilgan;

parallel moliyaviy tergov o'tkazish bo'yicha "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali takomillashtirish zarurligi asoslantirilgan;

xorijiy davlatlar so'rovi bo'yicha jinoiy faoliyatdan olingan mol-mulklarni qidirish, xatlash tartibi yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali takomillashtirish zarurligi asoslantirilgan;

sun'iy intellektni bosqichma-bosqich moliyaviy tergov o'tkazish va xatlash jarayoniga tatbiq etish zarurligi asoslantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari qonunchilik normalari, bir qator xorijiy davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyoti, jinoiy-protsessual huquqi nazariyasining umume'tirof etilgan qoidalari va boshqa ishonchli manbalar, yetarli ilmiy dalillarga tayanib isbotlangan bo'lib, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va unga turdosh bo'lgan jinoiyatlarni tergov qilishga oid masalada jami 142 nafar sudya, shuningdek, advokat, tergovchi, izlanuvchi va olimlar orasida so'rovlar o'tkazilgan, tadqiq etilayotgan masalaga doir jami 100 dan ortiq hukm, xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganilgan hamda statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, umumlashtirilgan va tegishli tartibda rasmiylashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya ishining **ilmiy ahamiyati** shundaki, unda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni tergov

qilishda moliyaviy tergovning mazmun-mohiyati, uni o'tkazishning protsessual jihatlari va ushbu jinoyat turini isbotlash jarayonining kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlari belgilangan bo'lib, undan ushbu sohaga taalluqli nazariy bilimlarni boyitish va yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati** mavzuni tadqiq etish natijasida shakllantirilgan ilmiy qoidalar, xulosalar va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, Jinoyat kodeksi, "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida" va "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunlar, Oliy sud Plenumi qarorlari hamda sud-tergov amaliyotini takomillashtirish, "Dalillar nazariyasi", "Jinoyat-protsessual huquqi", "Jinoiy odil sudlov asoslari" kabi fanlar bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, o'quv va metodik qo'llanmalar hamda darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni tergov qilishning protsessual jihatlari ilmiy tadqiq etish yuzasidan olingan natijalar asosida:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida qonunchilikka muvofiq belgilanadigan maxsus vakolatli davlat organi o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilishda xoli va mustaqil bo'lishi hamda vakolatli davlat organi vakolatlarini aniqlashtirish lozimligi haqidagi taklif 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-son "Iqtisodiy jinoyatlarga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasi 9- va 10-bandlarida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 25-iyundagi 3/08-101-son dalolatnomasi). Mazkur taklif jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda yagona davlat organini belgilash va mustaqilligini ta'minlashga xizmat qilgan;

tezkor-qidiruv tadbirlari ma'lumotlar to'plashda axborot tizimlari va axborot resurslarini ham qamrab olishi kerakligi hamda tezkor-qidiruv tadbirlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llangan holda, shu jumladan, kibermakonda va (yoki) uning imkoniyatlaridan foydalangan holda o'tkazilishi mumkinligi haqidagi taklif 2024-yil 13-martdagi O'RQ-920-son "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasi 1-bandi uchinchi va to'qqizinchi xatboshilarida ("Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasi birinchi qismi uchinchi xatboshisi va ikkinchi qismi) o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 25-iyundagi 3/08-101-son dalolatnomasi). Mazkur taklif tezkor-qidiruv faoliyati vazifalarining to'laqonli bajarilishiga xizmat qiladi;

yangi tahrirdagi Jinoyat-protsessual kodeksi loyihasining 106-moddasi uchinchi qismiga jinoyatlar bo'yicha mol-mulkning jinoiy yo'l bilan topilganligi yoki ushbu mol-mulkdan foydalanish orqali keladigan daromaddan olinganligini tasdiqlaydigan holatlar ham isbotlanishi kerakligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 106-moddasi yangi tahririda o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 13-iyundagi 27/2-146-24-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi jinoyat sodir etilishi natijasida yetkazilgan zararning to'liq qoplanishiga yordam beradi;

xorijiy davlat hududidagi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni aniqlash, xatlash, musodara qilish va qaytarish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish bo'yicha taklif yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 749-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 13-iyundagi 27/2-146-24-son dalolatnomasi). Mazkur taklif jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, xususan, 3 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, 2 ta monografiya, 14 ta ilmiy maqola (ulardan 9 tasi xorij nashrlarida) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 148 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyati, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va unga turdosh jinoyatlarni tergov qilishda moliyaviy tergov o'tkazish" deb nomlangan birinchi bobida legallashtirish va unga turdosh bo'lgan jinoyatlar bo'yicha moliyaviy tergov, parallel moliyaviy tergov tushunchasi va uning o'ziga xos protsessual jihatlari, moliyaviy tergovni amalga oshirish asoslari, tartiblari, moliyaviy tergov bo'yicha ayrim rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilingan.

Tadqiqotchi fikriga ko'ra, "moliyaviy tergov" atamasi hozirga qadar na fanda, na qonunchiligimizda aniq belgilab berilgan. Bu atamaning noaniqligi "moliyaviy tergov" atamasining mohiyati va mazmunini tushunishda noaniqliklar keltirib chiqarmoqda hamda ushbu turli talqinlar tufayli uni amalda samarali qo'llash imkonini bermay kelmoqda.

Shuningdek, muallif moliyaviy tergovning asosiy maqsadi jinoiy faoliyat davomida pul mablag'lari harakatini aniqlash va hujjatlashtirishdan iboratligi to'g'risida xulosaga kelgan. Pul mablag'larining kelib chiqish manbasi, mablag' oluvchilar, ularning olingan vaqti va saqlanish joyi o'rtasidagi bog'liqlik jinoiy faoliyat to'g'risidagi dalil va axborot manbayi bo'lishi mumkin.

Muallif fikriga ko'ra, moliyaviy tergov – jinoiy faoliyat bilan bog'liq moliyaviy ishlarni o'rganish bo'lib, uning maqsadi jinoyatchilik ko'lamini aniqlash, jinoyatdan olingan daromadlarning musodara qilinishi yoki mumkin bo'lgan boshqa mol-mulkni aniqlash va kuzatib borish, shuningdek, jinoiy odil sudlovda foydalanish mumkin bo'lgan dalillarni to'plashdan iborat bo'lgan moliyaviy razvedka organi faoliyatidir.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish belgilarini aniqlash, jinoyat qurollari va boshqa aktivlarni topish maqsadida moliyaviy tergov o'tkaziladi. Moliyaviy tergov o'tkazish tartibi Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Bojxona qo'mitasi o'rtasida imzolangan qo'shma qarorda belgilangan. Shu bilan birga, jinoiy daromadni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish to'g'risidagi jinoyat ishlari bo'yicha, shuningdek, o'ta ko'p miqdorda zarar yetkazgan yoki jinoyat natijasida o'ta ko'p miqdorda daromad olingan jinoyatlar bo'yicha bunday tergovlarni o'tkazish majburiy hisoblanadi. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish Yevroosiyo guruhi (YEAG)ning 2021-yildagi hisobotiga ko'ra, HMQO organlari moliyaviy (parallel) tergovning maqsadi, usullari va axborot manbalarini turlicha tushundilar. Shu munosabat bilan tadqiqotchi shunday xulosaga keladiki, me'yoriy hujjat qabul qilingani bilan bunday tergovni o'tkazishning yagona metodologiyasi va amaliyoti mavjud bo'lmagan. Bu esa, o'z navbatida, umuman jinoiy daromadlarni legallashtirishni aniqlash va tekshirish sifatiga ta'sir ko'rsatgan.

Ayni damda moliyaviy tergov tezkor-qidiruv tadbirlari, tergov va protsessual harakatlar, moliyaviy tahlil o'tkazish, turli axborot manbalaridan ma'lumotlarni to'plash orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda idoralararo elektron axborot almashinuvi tizimi, shuningdek, turli ochiq va idoraviy axborot manbalari qo'llanadi. Biroq turli organlar orasida moliyaviy (parallel) tergovning maqsadlari, usullari va ma'lumot manbalari haqidagi tushunchalar farq qilishi moliyaviy tergovning maqsadiga erishilishiga to'sqinlik qilmoqda.

Jinoiy daromadni legallashtirish bo'yicha jinoyatlarni aniqlash statistikasi shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda bu Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (Moliyaviy razvedka bo'limi)ning ish natijalaridir. Mazkur statistika Departament jinoiy daromadni legallashtirishga qarshi kurashish tizimida maxsus vakolatli organligini hisobga olgan holda, uni moliyaviy tergov o'tkazuvchi yagona organ sifatida belgilash lozimligini

ko'rsatmoqda.

Parallel moliyaviy tekshiruvlar o'tkazish, jinoiy daromadlarni legallashtirish holatlari, ayniqsa, jinoiy yo'l bilan topilgan mablag'larni aniqlash va keyinchalik musodara qilish maqsadida ularni kuzatish jarayonida Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti resurslaridan yanada ko'proq foydalanish lozim. Predikat jinoyatlarni aniqlashda samarali vosita hisoblangan qo'shma tezkor-qidiruv tadbirlaridan jinoiy daromadlarni legallashtirish faktlarini fosh etishda ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Biroq muallif yuqorida ko'rsatilgan obyektiv sababdan tashqari bir qator subyektiv sabablar ham mavjudligini ta'kidlaydi. Bular orasida predikat jinoyatlarni birinchi navbatda fosh etishga urg'u berilishi, jinoiy daromadni legallashtirishning yashirin sxemalari va ularni amalga oshiruvchi shaxslarni aniqlashga qaratilgan tezkor-qidiruv ishlarining muhimligiga yetarlicha e'tibor berilmasligi, shuningdek, moliyaviy (parallel) tergovlarni o'tkazishda jinoiy ta'qib organlarining yagona tushunchasi va umumiy amaliyotining yo'qligi kabi omillar mavjud.

2020–2024-yillar mobaynida Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga jami 551 ta parallel moliyaviy tergov bo'yicha so'rov kelib tushgan. Shundan 322 tasi – Davlat xavfsizlik xizmati, 132 tasi – Ichki ishlar vazirligi, 49 tasi – Bojxona qo'mitasi, 48 tasi esa prokuratura organlari tomonidan yuborilgan.

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining "Egmont" moliyaviy razvedka bo'linmalari guruhining faoliyatida ishtirok etish doirasidagi mavjud imkoniyatlaridan keng foydalanilgan.

Shularni inobatga olgan holda, muallif "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunga moliyaviy tergovni alohida tezkor-qidiruv tadbiri sifatida belgilash lozim deb hisoblaydi.

Shuningdek, dissertant Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun bilan belgilangan vakolatlarini inobatga olgan holda, moliyaviy tergov o'tkazish bo'yicha yagona vakolatli organ ekanini belgilash zarur deb hisoblaydi.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va unga turdosh jinoyatlarni tergov qilishda ayrim protsessual harakatlarni takomillashtirish"ga qaratilgan bo'lib, unda ushbu jinoyat bo'yicha tegishlilikni belgilash asoslari, tartibi, isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlar, isbot qilish jarayonini kuchaytirish va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni xatlash bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

Tadqiqotchining fikricha, jinoyat protsessining ilk bosqichida tergovga tegishlilik masalasini hal etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, avvalo, sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyat bo'yicha dastlabki tergov o'tkazish zarurmi yoki yo'qligini aniqlashga xizmat qiladi. Agar tergov zarur bo'lsa, uni qaysi organ va qanday tartibda olib borishi lozimligini aniqlash muhimdir. Shuningdek, jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilsa, bu qarorni qaysi vakolatli organ qabul qilishi kerakligi kabi muhim masalalarga aniqlik kiritiladi.

Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksining 345- va 381<sup>2</sup>-moddalariga muvofiq, Jinoyat kodeksining 243-moddasida nazarda tutilgan – jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati bo'yicha dastlabki tergovni ichki ishlar organlari tergovchilari olib boradi. Biroq amaldagi kodeksda mazkur toifadagi jinoyatning tergovga tegishlilik qismini qayta ko'rib chiqish lozim.

Jinoyatning murakkabligiga qarab, uni aniqlash, fosh etish va tergov qilish bir nechta bosqichdan (masalan, tezkor-qidiruv faoliyati, tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov) yoki faqat bitta bosqichdan (masalan, dastlabki tergov) o'tishi mumkin.

Jinoiy daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergov, odatda, Jinoyat-protsessual kodeksining 345-moddasida belgilangan umumiy qoidaga muvofiq, Ichki ishlar vazirligi tergovchilari tomonidan o'tkaziladi. Biroq predikat jinoyat bo'yicha olib boriladigan dastlabki tergov davomida jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyati aniqlansa, ushbu jinoyatni tergov qilish predikat jinoyatni tergov qilishga vakolatli bo'lgan tergov organi (Prokuratura, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati) tomonidan predikat jinoyatga oid bitta jinoyat ishi doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Shaxs tomonidan jinoiy daromadni legallashtirish jinoyatini sodir etganlik holati predikat jinoyat bo'yicha olib borilayotgan tergov jarayonida, ish bo'yicha to'plangan dalillar va aniqlangan faktlarni baholash asosida aniqlanishi mumkin.

Tahlil natijalariga ko'ra, korrupsiya (JK 167-, 168-, 1929-, 192<sup>10</sup>-, 205-, 209–214-mm.) va soliqqa (JK 179-, 184-, 188-, 189-mm.) doir jinoyatlar, odam savdosi (JK 135-m.), pul mablag'lari va (yoki) boshqa mol-mulkni jalb etishga doir noqonuniy faoliyat (JK 188<sup>1</sup>-m.), bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish (JK 182-modda), valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish (JK 177-m.), firibgarlik (JK 168-m.), o'g'rilik (JK 169-m.), giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab, qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish (JK 273-m.) eng ko'p miqdorda noqonuniy daromad shakllantiruvchi jinoyatlar sifatida belgilangan bo'lib, ushbu jinoyatlar dastlabki tergov va surishtiruv organlari tergoviga tegishlidir. Tadqiqotchining fikricha, bu masalada alternativ tegishlilik belgilash lozim.

Isbot qilish predmetini muayyan ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning barchasi emas, balki jinoyat ishi mohiyatiga ko'ra hal qilish imkonini beradigan holatlar tashkil etadi. Isbot qilish predmetiga jinoyat-huquqiy yoki jinoyat-protsessual mazmun kasb etuvchi holatlar kiradi. Ushbu holatlarning aniqlanishi jinoyat ishini hal etish va haqiqatni aniqlash jarayonidagi muhim bosqich hisoblanadi.

Muallifning fikricha, jinoyatlarni maqsadli sud tekshiruvidan o'tkazishning zaruriy sharti dastlabki tergov organlari va sud tomonidan har bir jinoyat ishi bo'yicha isbotlash predmetini to'g'ri belgilashdir. Isbotlash predmeti (yoki isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar) isbotlash huquqining asosiy qoidasi sifatida jinoiy qilmish holatlarini tekshirishning xolisligi, to'liqligi va har tomonlamaligini ta'minlash hamda shunga muvofiq, jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning muhim kafolati hisoblanadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor

yoʻnalishlaridan biri jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashdir. Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasiga koʻra, jinoyat tufayli yetkazilgan zararining xususiyati va miqdori surishtiruv hamda dastlabki tergov jarayonida aniqlanishi shart boʻlgan holatlardan biridir. Biroq Jinoyat-protsessual kodeksda mol-mulkning jinoiy yoʻl bilan qoʻlga kiritilganligi yoki ushbu mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan daromad ekanligini tasdiqlovchi holatlarni jinoyat ishi boʻyicha isbotlash predmetiga kirituvchi qoidalar mavjud emas.

Muallifning fikricha, Jinoyat-protsessual kodeksiga dastlabki tergov va surishtiruv organlari tomonidan mol-mulkning kelib chiqishi jinoyat ekanligini isbotlash majburiyatini yuklovchi norma kiritish lozim.

Tahlillarga koʻra, jinoiy taʼqibni amalga oshirishda huquqni muhofaza qilish organlari oʻzlariga berilgan protsessual vakolatlardan foydalanib, jinoiy daromad yoki jinoyat quroli boʻlgan mol-mulkni xatlashni amalga oshiradi. Bu chora keyinchalik moddiy zararni qoplash va mol-mulkni musodara qilishni taʼminlash maqsadida qoʻllanadi.

Predikat jinoyatlar boʻyicha dastlabki tergov jarayonida yetkazilgan zararni qoplash va jinoiy daromadlarni musodara qilishni taʼminlash maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan umumiy qiymati 1 461,6 milliard soʻm (137,4 million AQSh dollari) miqdoridagi mol-mulk xatlandi. Bu aybdorlar tomonidan ixtiyoriy ravishda qoplanmagan zarar summasining 89,7 foizini tashkil etdi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillarining taʼkidlashicha, aybdorlarning moddiy ahvoli pastligi va ularning mol-mulki yoʻqligi sababli mol-mulkni xatlash kabi taʼminlash choralari koʻrish doim ham mumkin emas. Ushbu dalil ekspertlar tomonidan maʼlum darajada inobatga olingan boʻlsa-da, umuman olganda, bunday koʻrsatkich huquqni muhofaza qiluvchi organlarning predikat jinoyatlar boʻyicha mol-mulkni aniqlash va xatlash borasidagi faoliyati yanada faollashtirilishi va takomillashtirilishi zarurligini koʻrsatmoqda.

JPKning 290-moddasiga muvofiq, hukmning fuqaroviy daʼvo yoki qonun-qoidalarga koʻra, mol-mulkni musodara qilishni nazarda tutuvchi boshqa mulkiy undiruvlarga oid qismini ijro etishni taʼminlash maqsadida surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va fuqaroviy javobgarining (qonunga koʻra, aybdorlar uchun moddiy javobgar boʻlgan shaxslarning) mol-mulki xatlanishi shart. Xatlash dastlabki tergov va sud muhokamasining butun davrida sud tomonidan yakuniy qaror chiqarilgunga qadar amal qiladi. Ashyoviy dalil deb eʼtirof etilgan mol-mulk ham oʻzlashtirilishi, isrof etilishi, yashirilishi, yoʻq qilinishi yoki shikastlanishining oldini olish maqsadida xatlanadi.

Aybdor va fuqaroviy javobgar oilasining normal hayot kechirishi uchun zarur boʻlgan turar joy, xonadon, uy jihozlari va boshqa buyumlar xatlanmaydi. Ularning roʻyxati Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 14-apreldagi 110-son qarori bilan tasdiqlangan. Biroq Oliy sud Plenumining 2012-yil 13-dekabrda "Jinoyat ishlari boʻyicha ashyoviy dalillarga oid qonun hujjatlarini qoʻllashning ayrim masalalari toʻgʻrisida"gi 17-sonli qarorining 2-bandidagi tushuntirishlardan kelib chiqib, jinoiy harakatlar sodir etilganidan soʻng jinoiy yoʻl bilan orttirilgan mablagʻ evaziga olingan yoki jinoyat natijasida qoʻlga kiritilgan mol-mulk, pul va boshqa

qimmatliklar ashyoviy dalillar deb e'tirof etiladi. Shunday qilib, qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlar tufayli xatlab qo'yilmaydigan, lekin ish bo'yicha ashyoviy dalil hisoblangan mol-mulkka nisbatan JPKning 207-moddasida belgilangan ta'minlash choralari qo'llanishi mumkin. Bunday mol-mulk belgilangan tartibda jinoyat ishiga qo'shib qo'yilishi yoki saqlash uchun topshirilishi mumkin.

JPKda mol-mulkni xatlash tartibini amalga oshirishning batafsil qoidalari mavjud (JPKning 290–294-mm.). Biroq JPKda uchinchi shaxslarning, ya'ni rasmiy mulkdorlarning mol-mulkini xatlash imkoniyatini nazarda tutuvchi to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi qoida yo'q. Shunga qaramay, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2016-yil 27-dekabrda 26-sonli qaroriga (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2021-yil 10-iyundagi 23-sonli qarori bilan) kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, agar ish yuritish jarayonida mol-mulk, aslida, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga tegishli deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining uchinchi shaxslarda saqlanayotgan mol-mulkiga xatlov qo'yilishi mumkin.

Jinoyat-protsessual kodeksining 285-moddasiga muvofiq, jinoyat yo'li bilan topilgan mol-mulk halol oluvchidan olib qo'yilib, tegishli egasiga qaytarilganda, unga ushbu mol-mulkning olib qo'yilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida mahkumga nisbatan da'vo qo'zg'atish huquqi tushuntiriladi.

Qonunning yuqorida keltirilgan qoidalariga (JPK 285-m.) ko'ra, boshqa shaxs tomonidan jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan mol-mulkni olib qo'yish natijasida halol oluvchiga yetkazilgan zarar jinoyatdan kelib chiqqan to'g'ridan to'g'ri zarar hisoblanmaydi va jinoyat ishlarini yuritish doirasida qoplanmaydi.

Bundan tashqari, ish yuritish jarayonida mol-mulki gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga amalda tegishli ekanligi sababli xatlangan uchinchi shaxs mol-mulkni xatlovdan chiqarish to'g'risidagi da'vo bilan fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida sudga murojaat qilishga haqli. Biroq Fuqarolik protsessual kodeksining 116-moddasi 4-qismi qoidalariga ko'ra, bunday da'vo bo'yicha fuqarolik ishi ish yuritish davomida uchinchi shaxsning mol-mulki xatlangan jinoyat ishi bo'yicha sud tomonidan yakuniy protsessual qaror qabul qilinmaguncha ko'rib chiqilishi mumkin emas.

Insofli uchinchi shaxslarning huquqlarini himoya qilish jinoyat-protsessual qonunda nazarda tutilgan bo'lib, ularga sud hukmining o'z huquq va manfaatlariga daxldor qismiga nisbatan shikoyat qilish huquqi berilgan.

Biroq halol oluvchilarning da'vo talablarini fuqarolik sud ishlarini yuritish sohasiga kiritish ularga fuqarolik protsessida isbotlash yukini yuklashni anglatadi, da'vo berganlik uchun davlat boji to'lash ko'rinishidagi moddiy xarajatlarga olib keladi. Bundan tashqari, fuqarolik da'vosi bo'yicha qaror faqat jinoyat ishi mazmunan ko'rib chiqilgandan so'ng qabul qilinishi mumkin, bu esa halol mulkdorning o'z mol-mulkini tasarruf eta olmaydigan vaqt oralig'ining cho'zilishiga sabab bo'ladi.

Muallifning fikricha, JPKga tegishli o'zgartirish kiritgan holda, mol-mulkni xatlash uchun sud sanksiyasi berilishi talab etilishi lozim. Jinoyat natijasida yetkazilgan zarar, mol-mulkni xatlash va uning taqdiri yuzasidan nizo paydo bo'lganda, uchinchi shaxslar o'z mulkiy huquqlarini himoya qilish maqsadida fuqaroviy da'vogarning maqomida ishtirok etishlari zarur. Bundan tashqari, muallif

mol-mulk bilan bog'liq masalalar fuqarolik qonunchiligi normalariga asoslangan holda, jinoyat ishi ko'rib chiqilayotgan sudda hal qilinishi lozim degan xulosaga keldi.

Dissertatsiyaning "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni tergov qilishga oid xalqaro standartlar hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari" deb nomlangan uchinchi bobida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni tergov qilishda xalqaro hamkorlikni tashkil qilish asoslari, tartibi, FATF normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilishdagi muammolar va qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari tahlil qilingan.

Jahon banki guruhi tomonidan o'tkazilgan "Mamlakatlar va hududlarning yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha reytingi" tadqiqotiga ko'ra, dunyo bo'yicha 203 ta mamlakat va hududning global reytingida yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi bo'yicha o'rganilayotgan mamlakatlardan faqat 17 tasining iqtisodiyoti tasdiqlangan bahosi 0,8 trillion AQSh dollaridan yuqori, faqat 8 ta davlat iqtisodiyotida esa yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlari 2 trillion AQSh dollaridan oshadi (Amerika Qo'shma Shtatlari, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Hindiston, Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiya). Rossiya iqtisodiyotining yalpi ichki mahsuloti 1,7 trillion AQSh dollarini tashkil etadi.

Ko'rsatib o'tilgan holatlar xalqaro hamjamiyat tomonidan jinoiy daromadlarni legallashtirish muammosining jiddiyligi va muhimligini tasdiqlamoqda. Bu muammo, odatda, uyushgan jinoyatchilik, qurol-yarog', odam va giyohvand moddalar savdosi, shuningdek, korrupsiyaning rivojlanishiga ko'maklashadi va unga qarshi birgalikda kurashish zarurligi sifatida e'tirof etilmoqda.

BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish Konvensiyasi (5-bo'lim), Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiyasi (14-modda)da a'zo davlatlar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qaytarish choralarini ko'rishi belgilangan.

FATF guruhi ekspertlarining O'zbekiston bo'yicha 2021-yildagi dastlabki monitoring tavsiyalarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qaytarishga doir normalarni milliy qonunchilikka kiritish ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasida o'zaro huquqiy yordam va ekstraditsiya masalalari bo'yicha yetarli qonunchilik bazasi yaratilgan. HMQO va sudlar xalqaro shartnomalar yoki o'zarolik prinsiplari doirasida o'zaro huquqiy yordam so'rab, xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga murojaat qilish vakolatiga ega (JPK 592-m.). O'zbekiston Respublikasi 5 ta xalqaro Konvensiya, 6 ta mintaqaviy va 32 ta ikki tomonlama shartnomaning ishtirokchisi hisoblanib, o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish va olishga vakolatli.

Respublikada shartnoma yoki o'zarolik prinsiplari asosida to'g'ridan to'g'ri o'zaro huquqiy yordam masalalari bo'yicha faoliyat yurituvchi bir nechta markaziy organ mavjud (Bosh prokuratura, Oliy sud, DXX va IIV). Sud tergov doirasida o'zaro huquqiy yordam Oliy sud orqali amalga oshiriladi. Sudga qadar ish yuritish bosqichida esa bu yordam vakolatli organlar tomonidan jinoiy-protsessual qonunchilikda nazarda tutilgan tartib va talablarga muvofiq ko'rsatiladi.

Shuningdek, 2021-yil 4-maydagi "Protsessual harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq so'rovlarni chet el davlatlariga yuborish va chet el davlatlarining shunga o'xshash so'rovlarini ijro etish bo'yicha ishlarni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 35/28-21/30kk/4/01-02/17-30/6-son Qo'shma ko'rsatmaning 2-

bandiga muvofiq, Bosh prokuratura o‘zaro huquqiy yordam bo‘yicha ishlarni milliy darajada muvofiqlashtiruvchi organ sifatida belgilangan.

Bosh prokuraturaga kelib tushgan so‘rovlar vakolatli organlarga yuboriladi. Minsk va Kishenev Konvensiyalari doirasida kelib tushgan so‘rovlarni DXX va IIV mustaqil ravishda ijro etishi mumkin.

Ichki hujjatlardan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-iyundagi 402-son qarori bilan “JFODL/TM/OQQTMQK sohasidagi xalqaro hamkorlikning tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlangan.

Mazkur nizomning 33-bandiga muvofiq, o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi so‘rovlarni ko‘rib chiqishga vakolatli organlar ushbu so‘rovlarni ko‘rib chiqishda ularga ustuvorlik darajasini boshqa sohalarni tartibga soluvchi normalarga muvofiq belgilash huquqiga ega.

Shuningdek, nizomning 4-bandida korrupsiya, daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in quroli tarqatilishini moliyalashtirish, shuningdek, qidiruv, xatlash, musodara qilish va aktivlarni qaytarish bilan bog‘liq so‘rovlarni kechiktirmasdan ijro etish ko‘rsatilgan.

